ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 29 — 35

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA MORFOLOGIK DIALEKTIZMLARNING AKS ETTIRILISHI

Aminova Feruza[1]

Abstrakt

Ma'lumki, dialektal uslub degan tushuncha hozirgi kungacha hali tadqiq etilmagan. Dialektizmlar haqida esa bir qancha izlanishlar olib borilgan. Dialektal uslubni tadqiq etishda dialektizmlar katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada og'uz lahjasi, jumladan Xorazm viloyati shevalariga xos bo'lgan morfologik dialektizmlar badiiy adabiyotlar - Matnazar Abdulhakim ijodi misolida turli metodlar yordamida tadqiq etilib, misollar orqali dalillanadi, ularning leksik-semantik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, shoirning ijodiy uslubida xalq tiliga xos unsurlar qanday aks etgani va badiiy tasvir kuchini oshirishdagi roli o'rganiladi. Natijada Matnazar Abdulhakim she'riyatida dialektizmlarning poetik funksiyasi va ularning adabiy jarayondagi o'rni haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Matnazar Abdulhakim, dialektizmlar, dialektal uslub, morfologik dialektizmlar, kolorit, kontekst, Xorazm viloyati shevalari, o'g'uz lahjasi.

Ma'lumki, Xorazm dialektiga kiruvchi shevalar o'zbek adabiy tili va uning boshqa shevalaridan o'ziga xos tarzda farq qiluvchi grammatik xususiyatlarga egadir va bu xususiyatlar mazkur grammatik elemenlarning qo'llanilishi uchraydi. Aslida, Xorazm shevalaridagi ayrim grammatik elementlar ba'zan bu shevalarning o'zida birbirlaridan farqlanishi bilan xarakterlansa, ayrim vaziyatlarda esa boshqa turkiy tillar, yozuvlar yodgorliklari hamda boshqa shevalardagi shakllarga o'xshashligi bilan ajralib turadi. Xorazm shevalarining boshqa o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi hisoblangan shevalari umumiylik tomonlari ham bor. Ular hudud jihatdan yaqin bo'lgan shevalarda kuzatiladi. Boshqa tomondan hudud jihatdan uzoqdagi shevalardan o'ziga xos o'zgachaliklar bilan ajralib turadi. Umu-

[1]*Feruza Aminova* – Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: feruzaaminova98@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9252-8678
Iqtibos uchun: *Aminova F.A.* 2025. "*Matnazar Abdulhakim she'riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi*". Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 29-35. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/VMMD4342

man, Xorazm shevalari grammatik jihatdan murakkab bo‘lib, o‘zida qadimgi tillardagi shakllarni saqlab kelganligi bilan ahamiyatlidir. Ayrimlari esa o‘zbek adabiy tilidagidan tubdan farq qilmasa-da, ular adabiy tilda bor bo‘lgan grammatik elementlarning fonetik variantlaridan iboratdir. Bu kabi dialektik xususiyatlar, ayniqsa, shoir, yozuvchi va adiblarning badiiy asarlari, she’rlarini lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinganda yorqin namoyon bo‘ladi. Biz mazkur ilmiy ishimizda Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Shuhrat” medali sohibi, atoqli shoir Matnazar Abdulhakim she’riyatini kuzatib, ularda uchraydigan grammatik dialektizmlar aniqlab, tahlil qilishni maqsad qildik. Shoir Matnazar Abdulhakim Xorazm vohasida tug‘ilib o‘sganligi uchun uning ijodida shevaga so‘zlar, dialektizmlar, jumladan, fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar ko‘plab uchraydi. Masalan, o‘zbek adabiy tilidagi adabiy me’yor hisoblangan Xorazm shevasida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi –ga Xorazm shevasida a shaklda qo‘llanadi.

Matnazar Abdulhakim o‘z she’riyatida Xorazm shevasiga xos morfologik dialektizmlardan foydalanib, o‘ziga xos uslub yaratgan. Uning asarlarida Xorazm o‘g‘uz lahjasiga xos so‘zlar va morfologik shakllar uchraydi. Masalan, shoir she’rlarida “gapliydi” (gapiradi), “söylaydi” (so‘zlaydi) kabi shakllar mavjud bo‘lib, ular adabiy tildagi “gapiradi” va “so‘zlaydi” shakllariga muqobil hisoblanadi. Bu kabi dialektalizm va sheva elementlari shoirning o‘ziga xos uslubini shakllantiradi va asarlariga milliy kolorit bag‘ishlaydi.

Ruhimda tonggacha ingrandi bir nay,
Bir totlig‘ tushlarni tolega yo‘yib...
o‘y o‘ylatib, pichir-pichirlab tinmay,
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Parchadagi totlig‘ so‘zidagi - liY affiksi sifat yasovchi - li affiksining og‘uz lahjasidagi ko‘rinishidir.

Tilga kirayotir har novda, har cho‘p,
Tinglayman barglaring so‘lmas sirini.
Bu tuproqdan hali qarzdorligim ko‘p,
Yuzimga solmaydi mingdan birini.
Yoki: Uqubatlar — g‘urbat sipohi,
Qilayotir bir-bir jon taslim.
Salom, mening xazonrez chog‘i
Go‘lib kelgan yam-yashil faslim.
Yoki: Dunyoda borligingdan quvonadirman Sayfi Najmiy
Kelayotir edim Hazoraspdan jim,
Tirband avtobusda horg‘in, asabiy,
Xuddi bu tirbandlik, to‘palon uchun

Boshqalar oldimda gunohkor kabi.

Yoki: Parvoyim yo‘q hozir xom, puxtalarga,
Unutdim dunyoning nasya, naqdlarin…
Yurakning olis bir nuqtalariga
Qaytib kelayotir shoir vaqtlarim.

Yoki: Kunlar o‘tayotir misli yildirim,
Sen hakda indamay kuylar har toshim.
Ayriliqqa qattiq g‘azab bildirib
o‘qraygan qo‘shiqdir mening bardoshim

Yuqoridagi parchalarda esa hozirgi zamon qo‘shimchasi - jätir shaklida qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

Yashagudek sevmoq kerak, aslida,
To bo‘lmasin dilda baxtga nihoya.
Ishq — hayot. Gapingga omiyn demoqqa
Farishtalar tili bormagay, shoyad.

Bu parchada esa harakat nomi - ***māq*** affiksi orqali hosil qilingan. O‘g‘uz lahjasida harakat nomining ***- iš*** affiksi deyarli qo‘llanmaydi:

***

Yoki: Noz bo‘ylardan uygo‘nib sahar,
Uchmoqqa yo‘q, ehtimol, haqqim.
Balki, asal deganim zahar,
Bol deganim, ehtimol, zaqqum.

Bārmagaj so‘zida esa - gaj affiksidan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. o‘g‘uz guruhiga kiruvchi turkiy tillarda -gay affiksi kelasi zamon yoki istak-maqsadni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu qo‘shimcha eski turkiy tilda keng qo‘llangan bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida deyarli ishlatilmaydi, lekin o‘g‘uz shevalarda va tarixiy adabiyotlarda uchrashi mumkin.

-gay affiksining o‘g‘uz lahjasida qo‘llanilishi:

Bar-gay (Boradi, yo‘l oladi)
Kel-gay (Kelayapti, kelmoqchi)
Bil-gay (Biladi, tushunadi)

Yuqoridagi parchada esa barmagaj - bormas, bormaydi so‘zlari ma’nosida kelasi zamonni ifodalab kelgan.

Ko‘zyosh qilib to‘kar zaqqum rashklarin,
Ko‘zyosh qilib to‘kar ozorlaringni.
Nozik kiftlarining silkinishidan
Zilzila titratgay mozorlaringni.

Bu ikki parchada - gay affiksi orqali kelasi zamon fe‘li hosil qilingan: [tïtratgaj] - titratadi.

Bo‘lib saf-saf ko‘ngil so‘rg‘ay daraxtlar bir o‘zim o‘tsam,
Hayotsan-ku, axir, jonim, bu ne yanglig‘ marosimdir.
Yoki: Dard chekib ruxsori gullar o‘z-o‘ziga qo‘ydi o‘t,
Ishq aro ko‘pdir azob, otash aro ozor yo‘q.
Yoki: Yurmag‘aylar aqlim-u ko‘nglim ikav bir yo‘lda hech,
Yuk erur nodonga dono, nodon ham donoga yuk
Yoki: o‘tkazg‘aylar ustozlar sizning
Allomalik aqiqangizni.
Uvol qilmasangiz zarra ham
Shu davr har daqiqangizni.

Yuqoridagi parchada Bu - g‘ay affiksi orqali kelasi zamon fe‘li hosil qilingan: [sorγaj] . Shoir bu bilan “ko‘ngil so‘raydi” demoqchi. Keyingi parchalarda qo‘llangan [jurmaϒajlar] - yurmaydilar, [ötkazϒajlar] - o‘tkazadilar.

Qalbini zabt etgali qildik muhabbatni qurol,
Qarshimizga qahrini aylab yaroq otlandilar.
Shunda, o, yuksak va teran anglarsan
Arshga oshiq yo‘li — Somon yo‘lini..
Arvoh kapalaging charx urib ko‘rgay
Qanday mudhish o‘lim oshiq o‘limi.

Ushbu parchada esa - gali affiksi orqali maqsad ravishdoshi hosil qilinganini, - gay affiksi orqali kelasi zamon fe‘li hosil qilinganligini kuzatish mumkin. -gali shakli o‘g‘uz shevalarida, xususan, Xorazm shevasida kelasi zamon yoki maqsadni ifodalovchi ravishdosh sifatida ishlatiladi. Masalan, “kelgali” (kelganidan beri) yoki “borgali” (borganidan beri) kabi shakllar adabiy tildagi “kelganimdan beri” yoki “borganimdan beri” iboralariga muqobil bo‘lishi mumkin.

Yor azob bergum dedi o‘lguncha, lekin, Matnazar,
Tushmagil tahlikaga, aldoqchining tonmog‘i bor.

Parchada - gim affiksi - güm shaklida qo‘llanadi: [bergüm]. Ikkiichi shaxsning –gin affiksining -gil shakli ishlatilgan va bu bilan buyruq ma’nosi kuchsizlanadi. Bu shakl ko‘proq iltimos yoki oddiy undash, da’vat uchun qo‘llanadi.Xorazm shevalarida, shuningdek, ayrim eski o‘zbek manbalarida uchrab, xushmuomalalik va ta’ kidni kuchaytirishga xizmat qiladi: o‘tirgil (o‘tir!) – yumshoqroq buyruq

Tushum kelishigi affiksi –ni Matnazar Abdulhakim ijodida –n tarzida qo‘llanadi: [örnin]-o‘rnini, [ekänligin]- ekanligini.

Bir chimdim tuproqqa ko‘zi to‘yguvchi
Yuho fe’llar hamon yashar qalashib.
o‘z o‘rnin eplashga etmas-ku kuchi,
Chang solar o‘zganing yerin talashib.

Yoki: Ne bir, ne bir donishmandlarni,
Piru ustozlarni ko‘rgandim.
Lekin ilm baxt ekanligin
Shogirdlarim sizdan o‘rgandim.

Matnazar Abdulhakim ijodida aniqlangan morfologik dialektizmlar va ularga misollar.

	Morfologik dialektizm	Adabiy tildagi muqobili	Misol
1	- lїʏ	- li	TotliʏTotliʏ
2	- jätir, - äjätir	- yotir, -yapti, -moqda	Kiräjätir, keläjätir, ötäjätir
3	- māq	- moq	Sevmāq
4	-gaj	- mas, - maydi	Barmagaj, tїtratgaj,
5	- ʏaj	- aydi, -adi	SorʏajSorʏaj, jurmaʏajlar, ötkazyajlar
6	- gali	- gani , - gali	Zabt etgalї
7	- gil	- gin	Tušmagїl
8	- güm	- gim	Bergüm
9	- in	- ni	Yerin

Matnazar Abdulhakim o‘z she’riyatida o‘z zamondosh, xorazmlik boshqa shoirlarga nisbatan ko‘proq sheva elementlarini qo‘llagan va imkon darajasida adabiy tilda she’r bitishga harakat qilgani shunday sezilib turadi, ammo shu bilan birga, ayrim vaziyatlarda mahalliy koloritni namoyon qilish uchun o‘z ijodida sheva elementlarini ham qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz.

Adabiyotlar

Mirvaliyev S., Shokirova R. (2016). O‘zbek adiblari. – T.: Go‘fur G‘ulom.

Hojiyev A. (2002). Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnazar Abdulhakim. (1986). Fasllar qo‘shig‘i. – T.: Go‘fur G‘ulom.

Matnazar Abdulhakim. (2002). Tafakkur chorrahalarida. – T.: Go‘fur G‘ulom.

Matnazar Abdulhakim. (2009). Ko‘prik. – T.: Yangi asr avlodi.

Matnazar Abdulhakim. (2008). Tavzo tashrifi. – T.: Sharq.

Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. – Xiva: Xorazm Ma’mun Akademiyasi, 2009. – B. 15.

Ахманова О, С. (1966). Словарь лингвистических терминов.

Yo‘ldoshev M. (2002). Cho‘lpon so‘zining sirlari. Ma’naviyat.
Qilichev E. (1985). O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent.
Ashirboyev S. (2022). O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent.
Chambers J.K. and Peter Trudgill. Cambridge University Press. 2004.
Fayzullayev B., Xidirov O. (2010). Dialektizmlar va kontekst. 157.
Doniyorov, X., Mirzayev, S. (1962). So`z san’ati. 316.
Shomaqsudov, A. va boshq (1983). O‘zbek tili stilistikasi. B. 57.

REFLECTION OF MORPHOLOGICAL DIALECTISMS IN THE POETRY OF MATNAZAR ABDULHAKIM

Aminova Feruza[1]

Abstrakt

This article analyzes the use of morphological dialectisms in the poetry of Matnazar Abdulhakim. The study examines how dialectal forms function as artistic expressive tools, enhancing the uniqueness of his works. The research explores these dialectal elements morphologically and highlights their lexical-semantic features. Additionally, it investigates how folk language elements are reflected in the poet’s style and their role in strengthening poetic imagery. As a result, conclusions are drawn regarding the poetic function of dialectisms in Matnazar Abdulhakim’s poetry and their significance in the literary process.

Key words: Matnazar Abdulhakim, dialectisms, dialectal style, morphological dialectisms, colorit, context, dialects of the Khorezm region, Oghuz dialect.

References

Mirvaliyev S., Shokirova R. (2016). O‘zbek adiblari. – T.: Go‘fur G‘ulom.
Hojiyev A. (2002). Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
Matnazar Abdulhakim. (1986). Fasllar qo‘shig‘i. – T.: Go‘fur G‘ulom.
Matnazar Abdulhakim. (2002). Tafakkur chorrahalarida. – T.: Go‘fur G‘ulom.

[1]*Aminova Feruza* – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
Email: feruzaaminova98@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-9252-8678
For citation: *Aminova F.A.* 2025. " *Reflection of morphological dialectisms in the poetry of Matnazar Abdulhakim".* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 29-35. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/VMMD4342

Matnazar Abdulhakim. (2009). Ko‘prik. – T.: Yangi asr avlodi.
Matnazar Abdulhakim. (2008). Tavzo tashrifi. – T.: Sharq.
Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. – Xiva: Xorazm Ma’mun Akademiyasi, 2009. – B. 15.
Ахманова О. С. (1966). Словарь лингвистических терминов.
Yo‘ldoshev M. (2002). Cho‘lpon so‘zining sirlari. Ma’naviyat.
Qilichev E. (1985). O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent.
Ashirboyev S. (2022). O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent.
J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press. 2004.
Fayzullayev B., Xidirov O. (2010). Dialektizmlar va kontekst. 157
Doniyorov, X., Mirzayev, S. (1962). So`z san’ati. O`zdavnashr. 316.
Shomaqsudov, A. va boshq (1983). o‘zbek tili stilistikasi. o‘qituvchi. 57.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com